

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

MURATOV MIRTOXIR MIRXALIL O'G'LI

**OLEIN KISLOTA VA ALKANOLAMINLAR ASOSIDA OLINGAN
SFMLARNING KOLLOID-KIMYOVIY HAMDA DEEMULGIRLASH
XOSSALARI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of doctor of filosofy (PhD)

Muratov Mirtoxir Mirxalil O'g'li

Olein kislota va alkanolaminlar asosida olingan SFMlarning kolloid-kimyoviy hamda deemulgirlash xossalari 3

Муратов Миртохир Мирхалил Угли

Коллоидно-химические и деэмульгирующие свойства ПАВ, полученных на основе олеиновой кислоты и алканоламинов..... 21

Muratov Mirtokhir

Colloid-chemical and demulsifying properties of surfactants obtained on the basis of oleic acid and alkanolamines 39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

MURATOV MIRTOXIR MIRXALIL O'G'LI

**OLEIN KISLOTA VA ALKANOLAMINLAR ASOSIDA OLINGAN
SFMLARNING KOLLOID-KIMYOVIY HAMDA DEEMULGIRLASH
XOSSALARI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2025.1.PHD/K948 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «Zionet» axborot-ta'lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshmetov Rasulbek Jumyazovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kuldasheva Shaxnoza Abdulazizovna
kimyo fanlari doktori, professor

Buxorov Shuxrat Bo'riyevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.02.30.12.2019.K/T.35.01 raqamli Ilmiy kengashning «15» avgust 2025 yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (+99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90, e-mail: ionxanruz@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (9-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60); faks: (+99871) 262-79-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «1» avgust kuni tarqatildi.
(2025 yil «1» avgustdagi № 9- reestr bayonnomasi)



B.S.Zakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, k.f.d., prof.

D.S.Salixanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, t.f.d., prof.

I.D.Eshmetov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda neft sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ayniqsa uzoq yillardan buyon foydalanib kelinayotgan yirik quduqlarda qazib olinayotgan neftning emulsiyaviy holati bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Qazib olinayotgan neft emulsiyalari tarkibida suv miqdorining ortib borishi ushbu emulsiyalarning fizik-kimyoviy murakkabligini oshirishi, shu bilan birga, deemulgirlash bosqichlarini yanada murakkablashtirishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda fazalarni ajratishning zarur samaradorligini ta'minlaydigan yuqori samarali sirt faol moddalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Dunyoda ekologik va iqtisodiy talablarni inobatga olgan holda bioyangilanuvchi manbaalardan olinadigan, iqtisodiy jihatdan samarali va turli xil jarayonlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan sirt faol moddalarni ishlab chiqarish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada sirt faol moddalarni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishda nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, balki energiya va resurs sarfini kamaytiruvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, ularning keng ko'lamli qo'llanilishi va yuqori ta'sir doirasini ta'minlash orqali mahsulot sifati va rentabelligini oshirish, hamda ishlab chiqarishning uzoq muddatli istiqbollarni mustahkamlash imkoniyatlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikada mahalliy xomashyolar va chiqindilar asosida turg'un neft emulsiyalarini deemulgirlash uchun deemulgatorlar, ya'ni SFM lar olinishi va qo'llanilishi bo'yicha keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining uchinchi yo'nalishida, "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish"¹ vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, bioasosli va yuqori samarali sirt faol moddalarni sintez qilish, ularning deemulgirlovchi, kolloid-kimyoviy va ekologik xossalarni chuqur o'rganish, shuningdek, reaksiyaga kirishuvchi komponentlarning tuzilishi, sintez sharoitlari va mahsulot xossalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son «“O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi» to'g'risidagi, 2024 yil 26 senyabrda PF-149-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta'minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to'g'risidagi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiyaning tadqiqot mavzusi doirasida amalga oshirilgan ishlar ma'lum darajada muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalar rivojlantirishning VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda deemulgatorlarning sintezi va ulardan foydalanish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, xorijiy mamlakatlarda turli polimer asosidagi deemulgatorlar va ularning emulsiyalarni ajratishdagi samaradorligi bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar mavjud. Mazkur tadqiqot bo'yicha bir qator xorijiy davlatlarning olimlari jumladan: J.A.Pollard, A.G.Heggem, K.F.Gray, H.W.Percins, I.P.Weichert, E.G.Agabalyans, N.N.Kruglitskim, S.A.Kapustinom, N.D.Ryabovoy, P.P.Dmitriyev va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Respublikamiz olimlaridan sirt faol moddalar borasidagi ilmiy izlanishlar Axmedov K.S., Hamraev S.S., Agzamxodjaev A.A., Aminov S.N., Alimov A.A., Narmetova G.R., Abdurahimov S.A., Axmedov U.K., Xamidov B.N., Yusupov F.M., Eshmetov I.D., Salixanova D.S., Adizov B.Z., Eshmetov R.J., Abdikamalova A.B. va boshqa bir qancha yetuk olimlarimiz tamonidan olib borilgan.

Lekin, turli xil tashqi omillar, shuningdek ekologik xavfsiz bo'lgan samarali deemulgirlash xossasini namoyon etuvchi sirt faol moddalarni ishlab chiqarish muammolarini chuqur o'rganish va ushbu moddalarni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha rivojlanmagan. Shu sababli, ushbu mavzuni o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi va milliy fan taraqqiyoti uchun yangi yo'nalishlarni ochib beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ilmiy tadqiqot ishi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Maxalliy xomashyolar asosida yuqori qovushqoq neftlarni tuzsizlantirish va suvsizlantirish uchun deemulgatorlar ishlab chiqarish» mavzusidagi davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi olein kislota va alkanolaminlar asosida olingan SFMlarning kolloid-kimyoviy hamda deemulgirlash xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

9-oktodeken kislota va alkanolaminlar asosida SFMlar sintez qilishning maqbul sharoitlari: harorat va katalizator miqdorini aniqlash;

sintez qilib olingan SFMlarning fizik-kimyoviy (IQ, GX-MS) tahlillarini olib borish;

sintez qilib olingan SFMlarning sirt tarangligi, shuning asosida, mitsella hosil qilish kritik konsentratsiyasini, suyuqlik sirtiga adsorbsiyasi samaradorligi, erituvchi sirt tarangligini kamaytirish samaradorligi, SFMning eritma sirtidagi maksimal konsentratsiyasini, SFMning eritma sirtida egalagan minimal sirt maydoni kabi ko'rsatkichlari aniqlanish;

sirt faol moddalar eritmalarining qovushqoqligini aniqlash hamda shu asosida mitsella hosil qilish kritik konsentratsiyalarini aniqlash va asoslash;

sintezlangan SFMlarning gidrofil-liofil balansini aniqlash;

olingan SFMning ko'piklanish kuchi va ko'pik barqarorligini turli konsentratsiyalarda o'rganish;

sintez qilingan namunalarni turli miqdorlaridan foydalanib emulgirlovchi xossalarni o'rganish;

sintezlab olingan SFMning deemulgirash xossalarni turli sarflarda, turli haroratlarda va turli neft emulsiyalaridan foydalanib o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida sifatida "Ko'kdumaloq" va "Shimoliy O'rtabuloq" suv-neftli emulsiyalari, olein kislota va alkanolaminlar, xususan, monoetanolamin va dietanolamin, ular asosida olingan SFMlar va "Deklavi-OR-16-26" import deemulgatori tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti olein kislota va alkanolaminlar asosida olingan SFMlarning kolloid-kimyoviy hamda deemulgirash xossalarni o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada sirt faol moddalarning fizik-kimyoviy (Infraqizil spektroskopiya, mikroskopiya, konduktometriya, Gaz xromatografiya-Mass spektroskopiya) hamda kolloid-kimyoviy (tensiometriya, Ross-Miles) xossalarni o'rganishning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

KU-2-8 katalizatori miqdori va reaksiya haroratini kondensatsiya reaksiyasi selektivligiga ta'siri aniqlanib, 0,15 % katalizator miqdorida va reaksiya harorati 403–423 K da konversiya 97,3% ni minimal darajada ko'shimcha efirlarni hosil bo'lishi, 1710 sm^{-1} sohalaridagi karbonil cho'qqilarining yo'qolishi, hamda 1650, 3300 va 1750 sm^{-1} dagi amid va efir cho'qqilari kuzatilishi bilan isbotlangan;

qutbli guruhni vodorod bilan gidratatsiyasi va pH ga bog'liq ionlanishi natijasida Griffin usuli orqali hisoblangan qiymatlarga nisbatan haqiqiy GLB ko'rsatkichi 17–78 % ga ortishi, sintez qilingan sirt faol moddalarning emulgirash xossalarni oldindan boshqarish va maqbullashtirish uchun tadqiqot sinovlaridan foydalanish zarurligi isbotlangan;

0,1 % konsentratsiyali (NK-1) dietanolamin asosidagi sintez qilingan sirt faol modda maksimal emulsiya barqarorligini (138 daqiqa) ta'minlaydi, konsentratsiyani 0,15 % gacha oshirish esa ajratish vaqtining statistik jihatdan sezilarli o'sishiga (<1 %) olib kelmaydi, bu esa fazalararo chegara qatlaminin to'yinganligini va samarali qo'llash uchun chegaraviy konsentratsiyani belgilash zarurligi asoslangan;

Shimoliy O'rtabuloq og'ir neft emulsiyalarida MK-1 ning deemulgirash samaradorligi $75\text{ }^{\circ}\text{C}$ da 100 g/t da 83 % dan 200 g/t da 89 % gacha oshadi, shu sharoitda esa NK-1 namunasida deemulgirash samaradorligi 95 % ga yetadi, bu emulsiyaning qovushqoqligini kamayishi va tomchilarning Braun harakatini tezlashishi, shuningdek, neft–suv chegarasida molekularning adsorbsiyasining kuchayishi hisobiga suv tomchilarining koalesensiyasini tezlashishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar iborat:

9-oktodeken kislotasi va alkanolaminlar, xususan monoetanolamin hamda dietanolaminlar asosida SFMlar sintez qilishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

sintez qilingan deemulgatorlarning kolloid-kimyoviy xossalarni ularning deemulgirash xususiyatlariga bog'liqligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha ilmiy xulosalar zamonaviy va an'anaviy fizik-kimyoviy hamda analitik usullar yordamida

olingan ilmiy ma'lumotlar bilan tasdiqlangan, ilmiy yangiliklarning amaliy natijalari esa "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJ laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida o'tkazilgan sinov dalolatnomalari orqali tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 9-oktodeken kislotasini monoetanolamin, dietanolaminlar bilan amidlash jarayonini o'rganish va SFMlar sintez qilib olish, shuningdek, olingan SFMlarning kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish ularning ishlatish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni berishiga asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati barqaror suv-neft emulsiyalarini suvdan va tuzlardan tozalash uchun SFM olish, deemulgirash jarayonlarini ulardan foydalanish yordamida jadallashtirish hamda oliy ta'lim muassasalarida neftni tayyorlash va qayta ishlash texnologiyasi yo'nalishida bakalavr va magistrnlarni tayyorlashda o'quv jarayonlarida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olein kislotasi va alkanolaminlar asosidagi sirt faol moddalarni sintez qilish, ularning deemulgirash va tuzsizlantirish xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Olein kislota va alkanolaminlar asosida SFMlar sintez qilish usuli «Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning «2030-2040 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning 2025 yil 6 maydagi 01-02/25a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, MK-1 deemulgatoridan 150 g/t foydalanilganda qoldiq suv miqdorini minimal 0.15% gacha kamaytiradi hamda NK-1 deemulgatorlari suvsizlantirish darajasi 30 daqiqa davomida 95 % yuqori natijani beradi;

sintez qilingan SFM larni neftlarni tezsizlantirish jarayonlarida qo'llash usuli «Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning «2030-2040 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning 2025 yil 6 maydagi 01-02/25a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, MK-1 asosidagi deemulgatorlardan foydalanganda qoldiq tuz miqdorini 88 mg/dm³ gacha kamaytiradi hamda NK-1 deemulgatoridan 150 g/t qo'llanilganda tuzsizlantirish darajasi 91 % ga yetadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari bo'yicha 1 ta monografiya, 7 ta ilmiy maqola, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan jurnallarda 2 ta respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va o'tkazilgan tadqiqotning ehtiyojdorligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilgan, ishning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati

ochib berilgan, tadqiqot davomida erishilgan ilmiy va amaliy natijalar, sanoat sinovlari, e'lon qilingan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilmasi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Sirt faol moddalar, ularning toifalanishi va ishlab chiqarish hamda qo'llash asoslarini zamonaviy adabiyotlar sharhi orqali baholash”** deb nomlangan birinchi bobida sirt faol moddalar (SFM)ning tuzilishi, sinflanishi, fizik-kimyoviy va kolloid-kimyoviy xossalari, ularning ishlab chiqarish texnologiyalari va qo'llanilish sohalari keng ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. SFMlarning o'zaro agregatlanib, mitsella hosil qilishi, sirt tarangligini kamaytirish xususiyati, ko'piklanish va deemulgirlash jarayonlaridagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, biologik parchalanadigan, biosirt faol moddalar va magnit sezuvchan SFMlarning afzalliklari va qo'llanish imkoniyatlari muhokama qilingan. Neft emulsiyalarining barqarorligi va ularni parchalashda sirt faol moddalar ishtirokidagi mexanizmlar ochib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Alkanolaminlar va 9-oktodeken kislota asosida sirt faol moddalar sintez qilish va olingan sirt faol moddalarning tadqiq etish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida olein kislotasi (ya'ni 9-oktodeken kislotasi) va alkanolaminlar – monoetanolamin (MEA) va dietanolamin (DEA) ishtirokida yangi sirt faol moddalarni (SFMlar) sintez qilish jarayonlari, sintezga ta'sir etuvchi omillar va optimal sharoitlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar yoritilgan. Ushbu bobning asosiy maqsadi – mahalliy manbalardan olingan, ekologik xavfsiz va biologik parchalanishga moyil bo'lgan SFMlarni olish hamda ularning fizik-kimyoviy va kolloid-kimyoviy xossalarni chuqur tahlil qilishdir.

Tadqiqot ob'ektlari sifatida texnik tozalikka ega olein kislotasi va alkanolaminlar tanlab olindi. Ushbu komponentlar asosida turli nisbatlarda, har xil harorat va vaqt oralig'ida sintez reaksiyalari olib borildi. Sintez jarayonining borishini nazorat qilish, reaksiyaga kirishgan moddalarning konversiyasini baholash, mahsulotlarning tarkibi va strukturaviy o'zgarishlarini aniqlash uchun zamonaviy instrumental metodlardan foydalanildi. Jumladan, Infraqizil (IQ) spektroskopiyasi, gaz xromatografiyasi-mass spektrometriyasi (GX-MS), tensiometriya, viskozimetrik o'lchovlar, mitsella hosil qilish konsentratsiyasini aniqlash (MKK) usullari tadbiq etildi.

Reaksiya sharoitlarining sintezga ta'siri sinchiklab o'rganilib, harorat, katalizator miqdori va reaksiya vaqt kabi parametrlarning mahsulot hosildorligi va sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekani aniqlangan. O'rganilgan reaksiya tizimlarida amidlanish reaksiyasi ketishi orqali yangi SFMlar hosil bo'lgan. Infraqizil spektroskopik tahlillar bu moddalar tarkibida amid guruhlarining mavjudligini tasdiqlagan. Ayniqsa, $1638-1642\text{ cm}^{-1}$ atrofidagi cho'qchilar amid guruhiga xos bo'lib, sintezning muvaffaqiyatli amalga oshganligini ko'rsatgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, monoetanolamin va dietanolaminlar bilan olein kislotasining amidlanishi orqali mos ravishda MK-1, MK-2, MK-3 va NK-1, NK-2, NK-3 deb nomlangan namunalar olingan. Sintezlangan SFMlarning fizik-kimyoviy xossalari, jumladan, erish harorati, suyuqlanish nuqtasi, zichlik, qovushqoqlik va eritmalardagi xatti-harakatlari aniqlangan. Ularning gidrofil-lipofil balans (GLB) ko'rsatkichlari hamda eritmadagi diffuziya tezligi kabi parametrlar SFMlarning amaliy ahamiyatini belgilashda muhim rol o'ynagan.

Tadqiqotda sirt tarangligini kamaytirish xususiyatini baholash uchun tensiometrik usullar orqali turli konsentratsiyalarda sirt faol modda eritmalarining sirt tarangligi o'Ichandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, sintez qilingan barcha SFMLar suvli eritmalarining sirt tarangligini sezilarli darajada kamaytira olgan, bu esa ularning kuchli sirt faol modda ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, MK-1, MK-2, MK-3, NK-1, NK-2 va NK-3 namunalarining MKK qiymatlari mos ravishda 0,0023; 0,0030; 0,0038; 0,00266; 0,00243 va 0,00257 mol/l bo'lib, bu qiymatlar molekulalarning sirtga adsorbsiyalanish qobiliyatining yuqoriligini ko'rsatadi.

SFMLarning termodinamik xususiyatlari ham o'rganilib, ularning erkin energiya o'zgarishlari – ΔG°_{ads} (adsorbsiyalanish bo'yicha) va ΔG°_{mic} (mitsella hosil qilish bo'yicha) qiymatlari aniqlangan. Har ikkala parametrning manfiy qiymatga ega bo'lishi jarayonlarning o'z-o'zidan sodir bo'lishini bildiradi. Shuningdek, $\Delta G^{\circ}_{ads} > \Delta G^{\circ}_{mic}$ tengsizligi molekulalarning avval sirtga adsorbsiyalanishini, so'ngra mitsella hosil qilishini ko'rsatgan.

SFMLarning mitsella hosil qilish xatti-harakati ham chuqur tahlil qilingan. Suvli eritmalarda molekulalarning MKK gacha bo'lgan konsentratsiyada sirtga adsorbsiyalanishi, undan ortiq konsentratsiyada esa mitsella hosil qilishi aniqlangan. Shuningdek, adsorbsiyaning maksimal zichligi, sirt maydoni va mitsella shakli bo'yicha baholashlar olib borilgan.

Ko'pik hosil qilish qobiliyati va ko'pikning barqarorligi sintez qilingan SFMLarning muhim texnologik xossalaridan biri sifatida o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, MK va NK turkumidagi namunalar suvli eritmalarida turli konsentratsiyalarda barqaror ko'piklar hosil qilgan. Bu xususiyat ularni yuvish vositalari, emulsifikatorlar va deemulgatorlar sifatida qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Emulgirlash va deemulgirlash xossalarini aniqlash maqsadida model emulsiyalar tayyorlanib, SFMLarning turli sarflardagi emulsiyalar barqarorligiga ta'siri o'rganilgan. Model emulsiyalar tarkibi, disperslik darajasi va zarralar taqsimoti nazorat qilingan. Natijalar sintez qilingan moddalar emulsiyalarni ajratishda yuqori samaradorlik ko'rsatishini namoyon etdi. Ayniqsa, deemulgatsiya samaradorligi 120 g/t sarf va 60 °C haroratda maksimal natijalarga erishilganini ko'rsatgan.

Bundan tashqari, real sanoat emulsiyalari, jumladan "Shimoliy O'rtabuloq", "Ko'kdumaloq" va Farg'ona neft konlariga oid suv-neft emulsiyalarida ham sintez qilingan SFMLarning deemulgirlash samaradorligi tekshirilgan. Tadqiqotda harorat, SFM sarfi, emulsiyadagi suv miqdori va qovushqoqlik kabi omillarning ta'siri chuqur tahlil qilingan. Misol uchun, "Shimoliy O'rtabuloq" emulsiyasida MEA asosidagi MK-1 namunasi 75 °C haroratda va 120 g/t sarfda 89 % samaradorlikni ko'rsatgan bo'lsa, DEA asosidagi NK-1 namunasi 75 °C da 94,5 % gacha yuqori deemulgirlash darajasiga ega bo'lgan. Bu esa MK-1 va NK-1 namunalarining yuqori haroratda fazalararo chegara sirtida tez va faol adsorbsiyalanishini, diffuziya kuchayishini, natijada emulsiyani tezroq parchalay olishini tasdiqlaydi.

Tarkibida 30 % suv saqlagan model emulsiyalarda MK-1 uchun 60 °C da 120 g/t sarfda tuzsizlantirish samaradorligi 84,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa, DEA asosidagi NK-1 namunasi 75 °C da 120 g/t sarfda 94,5 % gacha yetgan. Shuningdek, sintez qilingan sirt faol moddalarining gidrofil-lipofil balans (GLB) ko'rsatkichlari aniqlangan.


Tajribaviy usulga ko‘ra MK-1 namunasida GLB qiymati 6,9, NK-1 namunasida esa 12,8 bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar ular suv fazasi va neft fazasi bilan o‘zaro ta’sir darajasini belgilaydi. GLB qiymatlari shuni ko‘rsatadiki, MK-1 emulsiyalarning suv fazasiga yaqin bo‘lgan deemulgator sifatida, NK-1 esa yuqori disperslikdagi neft emulsiyalarini ajratishda faol modda sifatida samarali ishlatiladi.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shuki, sintez qilingan sirt faol moddalar nafaqat yuqori samaradorlikka ega, balki biologik parchalanishga moyilligi sababli ekologik xavfsizlik talablariga ham javob beradi. Ularning termik va gidrolitik barqarorligi, shuningdek, sanoat sharoitida qo‘llash uchun kerakli viskozimetrik va sirt-taramgilik parametrlari aniqlangan.


Dissertatsiyaning “**Sintezlab olingan sirt faol moddalarning fizik-kimyoviy va kolloid-kimyoviy xossalari tadqiqi**” deb nomlangan uchinchi bobida olein kislota va alkanolaminlar asosida sintez qilingan sirt faol moddalarning tarkibi, tuzilishi, sirt faolligi, gidrofil-lipofil balans, mitsella hosil qilish, ko‘pik hosil qilish va uning barqarorligi kabi asosiy fizik-kimyoviy hamda kolloid-kimyoviy xossalari chuqur o‘rganilgan. SFMlarning molekulyar strukturasi aniqlashda infraqizil spektroskopiya, gaz xromatografiyasi-mass spektrometriya (GX-MS), shuningdek, tensiometriya va viskozimetrik o‘lchovlar qo‘llanilgan.

Olein kislotasi va alkanolaminlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir murakkab reaksiya jarayonini tashkil etadi. Reaksiya ikki bosqichda kechib, dastlab karboksil va amin guruhlar o‘rtasida ionli tuzlar hosil bo‘ladi, so‘ngra yuqori haroratda amid kondensatsiyasi sodir bo‘ladi. Bu bosqichda alkanolaminlar nukleofil xususiyat ko‘rsatib, amid guruhlar shakllantiradi.

Shuningdek, alkanolamin tarkibidagi gidroksil guruhlar ishtirokida eterifikatsiya ham kuzatilishi mumkin. Natijada tuz, amid va efir turlarini o‘z ichiga olgan mahsulotlar aralashmasi hosil bo‘ladi. Mahsulotlarning shakllanishi komponentlar nisbati, harorat, vaqt va reaktivlik darajasiga bog‘liq.



1-rasm. Olein kislota va MEA reaksiya mahsulotlari.



2-rasm. Olein kislota va DEA reaksiya mahsulotlari.

9-oktodeken kislotaning monoetanolamin va dietanolaminlar bilan aminlash reaksiyalari KU-2-8 katalizatori ishtirokida olib borildi. Reaksiya borishini baholashda olein kislotaning konversiyasi ajralgan suv miqdori asosida aniqlandi. Tadqiqotda katalizator miqdori (0,1–0,2%) va harorat (100–140 °C) ko‘rsatkichlarining reaksiyaga ta’siri tahlil qilindi.

Olein kislota konversiyasiga turli omillarning ta'siri

KU-2-8, %	T, K	K ₀	K ₁	A ₀	A ₁	Olein kislota konversiyasi
		OK + MEA				
0.1	393	140	30	120	70	78,5
	403	140	26	120	74	82,1
0.15	393	140	18	120	60	88,0
	403	140	14	120	66	90,3
0.2	393	140	22	120	68	81,7
	403	140	18	120	72	84,2
KU-2-8, %	T, K	K ₀	K ₁	A ₀	A ₁	Olein kislota konversiyasi
		OK + DEA				
0.1	413	140	35	120	75	73,3
	423	140	31	120	79	77,1
0.15	413	140	20	120	62	86,6
	423	140	17	120	66	89,0
0.2	413	140	25	120	80	66,3
	423	140	22	120	84	70,1

1-jadvalda olein kislotasining monoetanolamin va dietanolamin bilan reaksiyalaridagi konversiyasi bo'yicha turli KU-2-8 katalizator konsentratsiyalari va harorat sharoitlarida o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Ma'lumotlar reaksiyaga ta'sir etuvchi asosiy qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi.

KU-2-8 katalizatori olein kislotaning $-\text{COOH}$ guruhini deprotonatsiyalab, uni reaktiv karboksilat anioniga aylantiradi. Bu holat amin guruhlari bilan samarali kondensatsiyani ta'minlab, amidlarning selektiv hosil bo'lishiga yordam beradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, 0,1–0,15% KU-2-8 konsentratsiyasi konversiyaning yuqori natijalarini ta'minlaydi. Ayniqsa, 0,15% darajasida maksimal samaradorlik kuzatiladi. 0,2% konsentratsiyada esa reaksiya samaradorligi ortmaydi, bu esa aktiv markazlarning to'yinganligi yoki nojo'ya reaksiyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Eksperimental natijalar KU-2-8 konsentratsiyasining 0,1% dan 0,15% gacha oshirilishi olein kislotasining konversiyasini sezilarli oshirganini ko'rsatdi. Masalan, MEA uchun 393 K haroratda konversiya 78,5% dan 88% gacha oshdi, ammo 0,2% da 81,7% gacha pasaydi. Bu aktiv markazlarning to'yinganligi yoki yon reaksiyalar bilan bog'liq. Dietanolamin bilan esa 413 K dan 423 K gacha bo'lgan haroratda konversiya 73,3% dan 89,0% gacha ortdi.


Harorat reaksiyaning kinetikasini oshirib, konversiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. MEA ishtirokidagi reaksiyada 0,15% KU-2-8 konsentratsiyasida 403 K da maksimal konversiya 90,3% ga yetdi. DEA uchun esa 423 K da 89,0% konversiya kuzatildi. Bunda MEA tarkibidagi birlamchi amin guruhi DEA dagi ikkilamchi aminga nisbatan kamroq sterik to'siqqa ega bo'lib, reaksiyani osonlashtirgan.

Sterik va elektron omillar, xususan, DEAdagi ikki gidroksil guruhining vodorod bog'lari hosil qilishi, uning nukleofilligini pasaytirgan. Natijada MEA asosidagi reaksiyalar nisbatan yuqoriroq samaradorlik ko'rsatdi. Optimal sharoitlarda olingan


mahsulotlar MK-1, MK-2, MK-3 (MEA asosida) va NK-1, NK-2, NK-3 (DEA asosida) deb nomlandi.

MEA asosida sintezlangan mahsulotlar tarkibi 2-aminoetil (9Z)-oktadek-9-enoat, (9Z)-N-(2-gidroksietil)oktadek-9-enamid va monoetanolamin tuzi aralashmasidan iborat. DEA asosidagi mahsulotlar esa 2-[(2-gidroksietil)amino]etil (9Z)-oktadek-9-enoat, (9Z)-N,N-bis(2-gidroksietil)oktadek-9-enamid va dietanolamin tuzidan tashkil topgan. Farqlar amidlanish va eterifikatsiya darajasining o'zgarishida aks etgan.

Hosil bo'lgan mahsulot tarkibi va tuzilishi aniqlash maqsadida IQ-spektroskopiya metodidan foydalanilib, olingan namunalarning tarkibi va strukturasi o'rganildi. Olingan mahsulot IQ spektri 3-rasmda keltirilgan.



a)




b)

3-rasm. a) olein kislota; b) SFMLar: 1- MK-3, 2-MK-2 , 3-MK-1 namunalarning IQ spektrlari.

Namunalarning IQ-spektral tahlili olein kislota va monoetanolamin o'rtasidagi reaksiyani tasdiqladi. 1735 cm^{-1} dagi cho'qqi $-\text{COOH}$ va $-\text{OH}$ guruhlari o'rtasida eterifikatsiya sodir bo'lganini, 3300 cm^{-1} va 1650 cm^{-1} dagi cho'qqilar esa amid $-\text{NH}-\text{CO}-$ bog'larining shakllanganini ko'rsatdi. Olein kislota ning 1710 cm^{-1} dagi karbonil cho'qqisi mahsulot spektrida yo'qolgan, bu uning to'liq reaksiyaga kirishganini bildiradi.

MEA ning O-H va N-H tebranishlaridagi siljishlar reaksiyadagi ishtirokini, $2850-2950\text{ cm}^{-1}$ dagi cho'qqilar esa alkil zanjirlar tebranishlarini bildiradi. 1628 cm^{-1} va 1118 cm^{-1} dagi absorbsiya chiziqlari amid tebranishlariga to'g'ri keladi. 3298 cm^{-1} , 1548 cm^{-1} va 1458 cm^{-1} dagi cho'qqilar esa mos ravishda N-H va C-N amid bog'larining mavjudligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, olein kislota hamda dietanolamin asosida sintezlangan sirt faol moddalarning ham struktura va tarkibi IQ spektroskopiya usulida o'rganildi (4-rasm).



4-rasm. a) olein kislota; b) DEA; c) olein kislota dietnolamidi namunalarining IQ spektrlari.

IQ-spektr tahlili olein kislotasi va DEA o'rtasida reaksiyaning yuz berganligini tasdiqladi. 1750 cm^{-1} dagi cho'qqi eterifikatsiyani, 3300 cm^{-1} dagi yangi cho'qqi esa amid bog'ining hosil bo'lganini bildiradi. 1710 cm^{-1} dagi C=O cho'qqisining yo'qligi asosiy reaksiyaning sodir bo'lganligini ko'rsatadi, 1350 cm^{-1} dagi cho'qqi esa reaksiyaga kirmagan olein kislotasiga tegishlidir.

DEA tarkibidagi O–H va N–H tebranishlaridagi siljishlar yangi bog'larning shakllanganini ko'rsatadi. $2850\text{--}2950\text{ cm}^{-1}$ dagi cho'qqilar alkil zanjirlarning C–H tebranishlariga, $3200\text{--}3600\text{ cm}^{-1}$ oraliqidagi keng cho'qqi esa gidroksil va amin guruhlariga mos keladi. 1628 cm^{-1} va 1118 cm^{-1} dagi cho'qqilar amid guruhlarini tasdiqlaydi.

SFM eritmalarining sirt tarangligini o'lchash ularning fizik-kimyoviy xossalarini baholashda muhimdir. Sirt tarangligi molekulararo kuchlanishni ifodalaydi, SFM esa uni kamaytirib, ho'llanish, deemulgirash va ko'piklanish jarayonlarini yaxshilaydi. Shu bois, sirt tarangligini o'lchash ularning fazalararo chegaralardagi samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi.

Bu o'lchovlar orqali mitsella hosil qilish kritik konsentratsiyasi (MKK) aniqlanadi. MKK qiymatida molekular mitsellalar hosil qiladi, sirt tarangligi esa barqarorlashadi. Bu qiymat SFMning optimal sarfini belgilash va ortiqcha miqdordan qochish imkonini beradi.

SFM eritmalarining sirt tarangligi turli konsentratsiyalarda va doimiy haroratda o'lchandi. MKKgacha sirt taranglik keskin kamayib, so'ng barqarorlashdi. MK-1

uchun MKK 0,001543 mol/l, unga mos γ_{CMC} 33,1 mN/m ni tashkil etdi. U MK-2 va MK-3 ga nisbatan past konsentratsiyada mitsella hosil qilgan. Izotermalar asosida har bir SFM uchun MKKgacha va undan keyingi sirt taranglik kamayish qiyaliklari aniqlangan.

3-jadval.

MEA asosida sintez qilingan SFMlarning sirt taranglik o'lovlariga asoslangan kolloid-kimyoviy xususiyatlari

Namuna	MKK (mol/l)	C_{20} (mol/l)	pC_{20} (mol/l)	γ_{CMC} (mN/m)	π_{CMC} (mN/m)	Γ_{max} , (mol/m ² 10 ⁻⁶)	A_{MIN} (nm ²)
MK-1	0,0023	0,001230	2,91	35,1	37,1	1,28	0,1295
MK-2	0,0030	0,001445	2,84	36,2	36,9	1,16	0,1430
MK-3	0,0038	0,001543	2,81	33,1	39,1	1,12	0,1480

3-jadvalda keltirilgan natijalar quyidagi adsorbsion parametrlarni o'z ichiga oladi: γ_{CMC} (sirt taranglikni kamaytirish samaradorligi) va pC_{20} (sirt adsorbsiyasining samaradorligi, ya'ni suvning sirt tarangligini 20 mN/m ga kamaytirish uchun zarur bo'lgan hajmiy sirt faol modda konsentratsiyasining manfiy logaritmi). γ_{CMC} va pC_{20} qiymatlaridan xulosa qilinishicha, MK-3 sirt taranglikni kamaytirishda eng samarali bo'lgan. MK-1 esa MK-2 va MK-3 ga qaraganda sirt adsorbsiyasida yaxshiroq samaradorlik ko'rsatdi.

4-jadval.

DEA asosida sintez qilingan SFMlarning sirt taranglik o'lovlariga asoslangan kolloid-kimyoviy xususiyatlari

Namuna	MKK (mol/l)	C_{20} (mol/l)	pC_{20} (mol/l)	γ_{CMC} (mN/m)	π_{CMC} (mN/m)	Γ_{max} , (mol/m ² 10 ⁻⁶)	A_{MIN} (nm ²)
NK-1	0,00243	0,00135	2,87	32,7	39,3	1,18	0,146
NK-2	0,00257	0,00144	2,84	36,6	35,4	1,15	0,141
NK-3	0,00266	0,00152	2,82	37,4	34,6	1,14	0,144

NK-1, NK-2 va NK-3 sirt faol moddalarning MKK qiymatlari mitsellalanish samaradorligida sezilarli farqlarni ko'rsatdi. NK-2 eng past MKK ga ega bo'lib, mitsella hosil qilishga yuqori moyillik ko'rsatgan, NK-1 esa eng yuqori MKK bilan ajralib turgan. NK-3 esa o'rtacha natijalarni namoyon etgan. Bu farqlar amid tarkibi va olein kislotasi konversiyasi bilan bog'liq bo'lib, suvli eritmada o'z-o'zini yig'ilish xossalari ta'sir qilgan.

Barcha namunalar $\Gamma_{max} = 11,5 \times 10^{-6}$ mol/m² qiymatiga ega bo'lib, sirtga adsorbsiyaning o'xshash zichligini ko'rsatdi. NK-1 sirt tarangligini kamaytirishda yuqori samaradorlik namoyon etdi. NK-2 past MKK bilan mitsellalanishda ustunlik qildi, NK-3 esa nisbatan past sirt faollik ko'rsatdi, bu uning tarkibiy farqlari bilan bog'liq.

Tahlillar MKK, sirt faollik va adsorbsiyaning o'zaro bog'liqligini ochib berdi. MK va NK turkumidagi noionogen SFMlarning mitsellalanish va adsorbsiyalanish jarayonlari termodinamik jihatdan baholandi. Gibbs energiyasi hisoblari bu jarayonlarning o'z-o'zidan amalga oshishini ko'rsatdi.

5-jadval.

MEA asosidagi sirt faol moddalarning mitsella hosil qilish va havo/suv chegarasidagi adsorbsiyasining termodinamikasi

Namunalar	ΔG°_{mic} , (kJ/mol)	(kJ/mol)
MK-1	-14,22	-19,97
MK-2	-13,51	-18,63
MK-3	-12,88	-17,66

6-jadval.

DEA asosidagi sirt faol moddalarning mitsella hosil qilish va havo/suv chegarasidagi adsorbsiyasining termodinamikasi

Namunalar	ΔG°_{mic} , (kJ/mol)	ΔG°_{ads} , (kJ/mol)
NK-1	-13,98	-19,64
NK-2	-14,20	-19,19
NK-3	-14,08	-19,13

Ikki xil alkanolaminlarga asoslangan namunalarning mitsellanish Gibbs erkin energiyasi ΔG°_{mic} -12,88 dan -14,22 kJ/mol gacha oraliqlarda ekanliklarni aniqlandi.

Adsorbsiyalanish Gibbs erkin energiyasi esa ΔG°_{ads} -17,66 dan -19,97 kJ/mol gacha oraliqda ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu natijalar ikki jarayon ham tashqi muhit sharoitida o'z-o'zidan, ya'ni termodinamik jihatdan qulay tarzda kechishini, ammo adsorbsiyalanish mitsellanishga nisbatan afzalroq ekanini ko'rsatadi.

NK turkumidagi sirt faol moddalar MK turkumidagilarga nisbatan biroz kuchliroq mitsellanish va adsorbsiyalanish xususiyatlariga ega ekanini ko'rsatdi. NK namunalarda yuqoriroq sirt bosimi π_{CMC} va kichikroq molekula yuzasi A_{min} qayd etildi, bu esa ularning havo-suv chegarasida zichroq joylashishini va yuqori sirt faolligini tasdiqlaydi.

Sirt faol moddalar maishiy, kosmetik va sanoat sohalarida muhim komponent bo'lib, ularning ko'pik hosil qilish qobiliyati ba'zida foydali, ba'zida esa oldini olish zarur bo'lgan hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ko'piklanishni boshqarish fizik-kimyoviy va gidrodinamik omillar orqali amalga oshiriladi.

Ko'pik hajmi havo ushlanishi va pufakchalarning qo'shilish jarayoni o'rtasidagi muvozanatga bog'liq. SFM adsorbsiyasi tez bo'lsa, pufakchalar barqaror bo'ladi, aks holda ular birlashadi. Suyuqlik plyonkasining yupqalashish vaqti ham ko'pik barqarorligiga ta'sir qiladi.

Olein kislota va alkanolaminlar asosidagi SFMlarning ko'piklanish xossalari turli konsentratsiyalarda o'rganilib, har bir tajriba uch martadan takrorlangan.

Hosil qilingan ko'pik hajmi ikki marotaba qayd qilindi. Aralastirilgan paytda darhol va 10 daqiqadan keyingi ko'pik balandligi 7-jadvalda taqdim etildi.

7-jadval.

SFMlarning ko'pik hosil qilish qobiliyati va barqarorligi

